




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

## 2019-yil 1-sentabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot



## 2019-yil 1-sentabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida Respublikamizda 68,7 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30,5 mingtaga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 71,7 mingtaga (21,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 399,2 mingtani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-sentabr holatiga 399,2 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,9 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,5 % savdo, 17,8 % sanoat, 9,3 % qurilish, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.09.2019 yil	
	01.09.2018 yil	01.09.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>327,4</b>	<b>399,2</b>	<b>121,9</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	25,0	29,9	119,8	7,5
Sanoat	56,3	70,9	125,8	17,8
Qurilish	29,0	36,9	127,2	9,3
Savdo	72,7	97,9	134,7	24,5
Tashish va saqlash	13,3	15,7	117,9	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	20,1	25,6	127,4	6,4
Axborot va aloqa	7,1	8,1	113,5	2,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6,6	7,8	117,1	2,0
Boshqa turlari	97,3	106,4	109,4	26,6

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (83 129 ta), Toshkent (42 076 ta), Farg'ona (34 759 ta), Andijon (32 398 ta) va Samarqand (31 689 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (12 820 ta), Navoiy (15 301 ta) hamda Jizzax (17 527 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 380,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 68,2 mingta (21,8 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,5 % savdo, 17,8 % sanoat, 9,3 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (80 258 ta), Toshkent (36 299 ta), Farg'ona (34 298 ta), Andijon (30 954 ta) va Samarqand (30 078 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (11 920 ta), Navoiy (15 057 ta) hamda Jizzax (16 730 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil yanvar-avgust oylarida 68 654 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.


## Yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (13 754 ta), Toshkent (6 832 ta), Samarqand (6 002 ta) va Farg'ona (5 614 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (1 979 ta), Jizzax (2 904 ta), Surxondaryo (3 476 ta), Xorazm (3 780 ta), Navoiy (4 425 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (2 870 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (25 527 ta), sanoat (14 668 ta), qurilish (6 674 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (4 928 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (969 ta), axborot va aloqa (1 141 ta) hamda tashish va saqlash (2 215 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalari**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019-yil 1-sentabr holatiga 320,6 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 82,8 mingta, oilaviy korxonalar - 23,2 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 207,8 mingta va boshqalar 6,8 mingtani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonalar



Oilaviy korxonalar



Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2019-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 9 507 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 799 taga yoki 41,7 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-sentabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 9 507 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Toshkent shahri (5 665 ta), Toshkent (1 042 ta), Samarqand (489 ta) va Farg'ona (366 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Xorazm (122 ta), Sirdaryo (144 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga (139 ta) to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 4 800 tasi qo'shma korxonalar, 4 707 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>9 507</b>	<b>100,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	139	1,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	278	2,9
Buxoro	241	2,5
Jizzax	177	1,9
Qashqadaryo	167	1,8
Navoiy	177	1,9
Namangan	200	2,1
Samarqand	489	5,1
Surxondaryo	300	3,1
Sirdaryo	144	1,5
Toshkent	1 042	11,0
Farg'ona	366	3,8
Xorazm	122	1,3
Toshkent sh.	5 665	59,6


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 2 242 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 846 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Toshkent shahar (1 201 ta yoki jamidagi ulushi 53,6 %), Toshkent viloyati (200 ta yoki 8,9 %) va Surxondaryo viloyatlari (123 ta yoki 5,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qoraqalpog'iston Respublikasi (25 ta yoki 1,1 %), Sirdaryo viloyati (38 ta yoki 1,7 %) va Xorazm viloyati (48 ta yoki 2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-avgust oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 330 ta, Turkiya Respublikasi - 291 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 378 ta, Qozog'iston Respublikasi - 221 ta va Koreya Respublikasi - 150 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-avgust oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (683 ta yoki 30,5 %), savdo (646 ta yoki 28,8 %), qurilish (264 ta yoki 11,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (179 ta yoki 8,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (97 ta yoki 4,3 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (37 ta yoki 1,6 %), axborot va aloqa (51 ta yoki 2,3 %) hamda tashish va saqlashda (57 ta yoki 2,5 %) tashkil etgan.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-sentabr holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 318,3 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-sentabr holatiga qaraganda 25,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 70,6 mingtasi (22,2 %) Toshkent shahri, 30,5 mingtasi (9,6 %) Toshkent, 28,3 mingtasi (8,9 %) Farg'ona hamda 26,0 mingtasi (8,2 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 318,3 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 92,6 mingtasi (29,1 %) - savdo, 67,2 mingtasi (21,1 %) - sanoat, 35,2 mingtasi (11,0 %) - qurilish, 27,4 mingtasi (8,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,4 mingtasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasi, 6,1 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 14,8 mingtasi (4,7 %) - tashish va saqlash hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-avgust oylarida 65,9 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (13 276 ta), Toshkent (6 599 ta), Samarqand (5 709 ta) va Farg'ona viloyatlari (5 376 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (1 885 ta), Jizzax (2 739), Surxondaryo (3 340 ta), Navoiy (4 311) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (2 755 ta) tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (25 509 ta), sanoatda (14 646 ta), qurilishda (6 663 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4 893 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (872 ta), axborot va aloqada (1 134 ta) hamda tashish va saqlashda (2 212 ta) tashkil etilgan.


## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-sentabr holatiga 24 135 tani tashkil etib, ulardan 23 170 tasi yoki 96,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 62,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 35,4 % yoki 8 203 tasi sanoat, 21,0 % yoki 4 872 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 21,4 % yoki 4 958 tasi savdo, 10,2 % yoki 2 353 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 274 tasi qurilish, 1,0 % yoki 241 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 236 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 211 tasi axborot va aloqa hamda 7,9 % yoki 1 822 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>8 225</b>	<b>100,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	297	3,6
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	129	1,6
Buxoro	560	6,8
Jizzax	205	2,5
Qashqadaryo	391	4,7
Navoiy	1 570	19,1
Namangan	147	1,8
Samarqand	1 455	17,7
Surxondaryo	311	3,8
Sirdaryo	68	0,8
Toshkent	650	7,9
Farg'ona	858	10,4
Xorazm	1 028	12,5
Toshkent sh.	556	6,8

2019-yil yanvar-avgust oylarida 8,2 mingga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,8 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Navoiy (1 570 ta), Samarqand (1 455 ta), Xorazm (1 028 ta) va Farg'ona viloyatlari (858 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (68 ta), Andijon (129 ta) hamda Namangan (147 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 34,2 % yoki 2 811 tasi sanoat, 29,9 % yoki 2 457 tasi savdo, 18,8 % yoki 1 546 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 9,7 % yoki 802 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 58 tasi qurilish, 0,8 % yoki 67 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 62 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 57 tasi axborot va aloqa hamda 4,4 % yoki 365 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik registrarni yuritish va tizimli  
xizmat ko'rsatish boshqarmasi  
Tel.:71-230-80-90 (91)